

O‘ZBEK TILI SO‘ZLASHUV USLUBIGA KIRIB OMMALASHGAN QO‘SHMA FE‘LLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Shohida Tahirova Nasriddinovna

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: shohidatohirova2@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek tilshunosligiga yangi kirib kelgan qo‘shma fe‘llar tadqiqi va ular hosil qilgan fe‘lli birikmalarning semantik xususiyatlarini ochib beriladi. Fe‘lli birikmalarning og‘zaki va yozma nutqdagi rivoji, ma‘no imkoniyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. O‘zbek tilidagi yangi nashdagi izohli lug‘atdan, o‘zbek tili so‘zlashuv uslubiga kirib ommalashgan so‘zlar va termilardan, ijtimoiy tarmoqlar yozma matnlaridan olingan misollar bilan dalillangan.*

***Kalit so‘zlar:** Qo‘shma fe‘l, yetakchi fe‘l, ko‘makchi fe‘l, neologizm, semantik ma‘no, struktur xususiyat, o‘zlashma so‘zlar, og‘zaki va yozma nutq, mustaqil ma‘no, qo‘shimcha ma‘no, atash sema, ifoda sema, vazifa sema, statistika, izohli lug‘at.*

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОСТАВНЫХ ГЛАГОЛОВ, ПОПУЛЯРИЗИРОВАННЫХ В РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация:** В статье раскрываются семантические и структурные особенности вновь введенных в узбекскую лингвистику составных глаголов и образуемых ими глагольных спряжений. Проведено рассуждение о развитии глагольных спряжений в устной и письменной речи, возможностях значения. Это подтверждается примерами из нового толкового словаря узбекского языка в нэше, из слов и терминов, популяризированных в разговорной речи узбекского языка, из письменных текстов социальных сетей.*

***Ключевые слова:** Спряженный глагол, ведущий глагол, вспомогательный глагол, неологизм, смысловое значение, структурный признак, заимствование слов, устная и письменная речь, самостоятельное значение, дополнительное значение, именованное Сема, выражение Сема, задача Сема, статистика, толковый словарь.*

SEMANTIC FEATURES OF COMPOUND VERBS POPULARIZED BY ENTERING THE COLLOQUIAL STYLE OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: *The article will reveal the study of newly introduced compound verbs in Uzbek linguistics and the semantic and structural features of the verb conjugations they form. Feedback was made on the development of verb conjugations in oral and written speech, the possibilities of meaning. It is evidenced by examples from the Explanatory Dictionary in the new Nash of Uzbek language, words and terms that have become popular by entering into the colloquial style of Uzbek language, written texts of social networks.*

Keywords: *Compound verb, leading verb, auxiliary verb, neologism, semantic meaning, structural feature, acquisition words, oral and written speech, independent meaning, additional meaning, atash sema, expression sema, task sema, statistics, Explanatory Dictionary.*

Kirish: Mazkur ilmiy maqolamiz o‘zbek tiliga yangi kirib kelgan so‘zlashuv uslubida ommalashgan fe’lli birikmalar, jumladan qo‘shma fe’llarning semantik xususiyatlarini o‘rganib, tahlil qilish masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘zbek tiliga yangi kirib kelgan so‘zlashuvda ommalashgan qo‘shma fe’llarning semantik tahlil qilinishi tilshunosligimizda yangilik hisoblanadi, bu esa o‘zbek tili lug‘at boyligining yangi o‘zlashma so‘zlar orqali boyishi, ularning semantik xususiyatlarini tadqiq etish muammosini qo‘yadi. Maqolada qo‘shma fe’llarning semalari, affikslar bilan qo‘llanishi, ularning kontekstda ifodalanishi haqida ma’lumot keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘zbek tilida fe’llarning semantik xususiyatlarini A.Navoiy, A.Fitrat, A.G‘ulomov, A.Hojiyev kabi olimlar o‘rganishgan. A.Navoiyning “Muhokamat-ul lugatayin” asarida yuzdan ortiq fe’llarning semalarini tahlil qilish orqali fors va o‘zbek tili imkoniyatlarini solishtirgan. Fe’llarning umumiy birlashtiruvchi semalari va farqlovchi semalarini badiiy asarlardan parchalar keltirish orqali izohlab bergan.

A.Fitrat esa qo‘shma fe’llarning hosil bo‘lishi va ularning imlosi haqida batafsil ma’lumot beradi. Olim qo‘shma fe’llar ikki qismdan tashkil topishini, birinchi qism so‘zning leksik ma’nosini, ikkinchi qism unga qo‘shimcha ma’no ifodalashini aytadi. U “Ma’noning og‘irligi birinchi fe’lda bo‘lib, ikkinchi fe’lning ma’nosi unga “qayd” bo‘lib qoladir”¹. Fe’lning ikkinchi qismiga fe’lning barcha kategorial shakllari qo‘shilishini aytadi. Olim qo‘shma fe’llarning birikmaga o‘xshashini, ammo undan ot qismi kelishik qo‘shimchalari olmasligi bilan farq qilishini aytadi. Masalan, *mumkin*

¹ Nurmonov A. Ozbek ilshunosligi tarixi. Toshkent. -2002 B.152

bo'ldi, do'st tutdim qo'shma so'z, *mumkinni bo'ldi* deb bo'lmaydi, *do'stni tutdim* esa so'z birikmasidir¹.

A.G'ulomov qo'shma fe'llar haqida shunday yozadi, ular bir leksik butunlikdan iborat bo'lib uning asosiy ma'nosi birinchi elementda bo'ladi, ikkinchi element yordamchi sifatida qo'llanishini aytadi. Qo'shma fe'lda tuslanish ikkinchi elementda bo'lishini ta'kidlaydi: *o'qib chiqding, o'qib chiqdim* kabi.

A.Hojiyev fe'l so'z turkumining barcha xususiyatlarini tahlil qilib o'z qarashlarini "Fe'l", "Ko'makchi fe'llar", "To'liqsiz fe'l", "O'zbek tilida qo'shma, juft, takroriy so'zlar" asarlarida keltirgan. Olim asarlarida qo'shma fe'llarni ikki usul orqali ot+fe'l va fe'l+fe'l tipida yasalişini o'rganib chiqadi. Olim o'zidan oldingi adabiyotlarda fe'l yasalişida sitaktik usul eng samarali usul deb hisoblanganligiga qo'shilmaydi. Bunday holda bir fe'l bir nechta ko'makchi fe'llar bilan yoki, bir nechta yetakchi fe'llar bilan kela olishini nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O'zbek tili so'zlashuv uslubiga yangi kirib, so'zlashuvda ommalashayotgan qo'shma fe'llarning semantik jihatdan o'rganishni muhim deb hisobladik. Tahlilga olingan qo'shma fe'llar internet tarmoqlarida va so'zlashuv uslubida faol ishlatiladi. Qo'shma fe'l leksemalarini uch turi: atash sema, ifoda sema, vazifa semalari orqali tahlil qilamiz. Har bir sema misollar orqali tahrirlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi kunda o'zbek tilining so'zlashuv uslubiga yangi kirib kelgan qo'shma fe'llarning leksemalarini uch tur orqali tasnif qilamiz.

1. Karantinga olmoq, karantinga qo'ymoq, karantin e'lon qilmoq, karantinga rioya qilmoq, karantinda bo'lmoq – (fransuz tilidagi **quaranta giorni**-qirq kun) yuqumli kasalliklar va qishloq xo'jalik zararkunandalari tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o'tkaziladigan sanitariya tadbirlari².

Yuqoridagi leksemalarning hammasida atash semasi bir xil. Karantinga olmoq, karantinga qo'ymoq, karantin e'lon qilmoq leksemalarining atash semalari quyidagilar: 1) davolashga olmoq, 2) kasallikdan himoya qilmoq, 3) kasallik haqida ma'lumot bermoq, 4) sanitariya qoidalariga rioya qilmoq, 5) kasallik bilan og'rимоq. Shu bilan birgalikda, bu semalarda farqlanuvchi atash semalari mavjud bo'lib, ular; karantin e'lon qilmoq, karantinga rioya qilmoq, amal qilmoq, karantinda bo'lmoq, kasallikni yuqtirganlik semalaridir. O'ta yuqumli kasallikdan xabardor bo'lish, himoalanish va davolanish umumiy atash semalaridir.

¹ Nurmonov A. Ozbek ilshunosligi tarixi. Toshkent.-2002 B.153

² Izohli lug'at.2-tom."O'zbekiston nashriyoti". Toshkent:2020.B-319

Karantinga olmoq, karantinga qo‘ymoq, karantin e‘lon qilmoq, karantinga rioya qilmoq, karantinda bo‘lmoq leksemasida “salbiy”, “neologizm” va “so‘zlashuv uslubiga xos” ifoda semalari mavjud. Salbiy ifoda semasi inson uchun xavf ekanligini bildirsa, o‘zbek tili so‘zlashuv uslubiga endi kirib kelganligini uchun neologizm hisoblanadi.

Vazifa semalari quyidagicha qo‘llana oladi. *Yangi aniqlangan bemorlar karantinga olish kerak. Karantinga rioya qilish barcha fuqarolarga tegishlidir. Sen hali tuzalmading, karantinda qol. Kasallikning favqulotda holatlarda karantin e‘lon qilinadi.*

2. *Virus yuqtirmoq-* (lotin tilida virus – o‘simlik shirasi; zahar) Faqat tirik hujayralarda ko‘payib, odam, hayvon, o‘simlikda yuqumli kasalliklar qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar¹. Bemordan virusni yuqtirmoq, kasal bo‘lmoq kabi atash ma‘nosiga ega. *Virus yuqtirmoq* semasida “ilmiy uslubga xos” va “so‘zlashuv” uslubiga xos ifoda semalari mavjud. *Butun dunyo aholisining ko‘p qismi Covid-19 virusini yuqtirib oldi. Bunday kasalxonada virus yuqtirib olish hech gap emas.* Yuqoridagi gaplarda vazifa semasining qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin.

3. *Onlayn o‘qimoq* - (onlayn ingliz tilidagi «line» so‘zi «chiziq» degan ma‘noni anglatadi. Kengroq ma‘noda esa internet degani, ikkinchi «yoqish» «o‘chirish» degan ma‘nolarni ham anglatadi. Ish, o‘qish, hujjat, savdo-sotiq, to‘lov masalalarini onlayn bajarish odatga aylanib bo‘ldi. Masofadan turib, internet orqali ilm o‘rganish, kasb o‘rganish atash ma‘noni anglatadi. *Onlayn o‘qish* semasida “neologizm” va “so‘zlashuv uslubida xos” ifoda semasi mavjuddir. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo‘llanadi. *Onlayn o‘qish - masofaviy o‘qishdir. Ko‘pchilik insonlar onlayn o‘qishni afzal bilishadi.*

4. *Vaksina olmoq-* Vaksinalar (lotin tilidagi vaccina — sigirga oid), emlashda ishlatiladigan moddalar — infekcion kasalliklarning oldini olish yoki davolash maqsadida qo‘llaniladigan preparatlar. Mikroorganizmlar, shuningdek ularning zararsizlantirilgan toksinlaridan tayyorlanadi, organizmga yuborilganda tegishli yuqumli kasalliklarga nisbatan sun‘iy orttirilgan faol immunitet vujudga keladi².

Atash ma‘nosi kasallikka qarshi dori qabul qilish, emlash tushuniladi. “Ilmiy uslubga xosligi” ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidaicha qo‘llanadi. *Butun dunyo aholisi vaksina olish nimaligini biladi. Covid-19 kasalligida insonlar Xitoy, Rossiya, AQSH davlatlari ishlab chiqargan vaksinalarni olishdi.*

5. *Skringshot qilmoq* - “Skrinshot” - bu kompyuterning stolini yoki kompyuter ekraningizda ko‘rsatiladigan har qanday narsani statik rasm faylga olish harakatlarini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Kompyuter va telefon ekranidagi har qanday

¹ Izohli lug‘at.1-tom.”O‘zbekiston nashriyoti”. Toshkent:2020.B-462

² Izohli lug‘at.1-tom.”O‘zbekiston nashriyoti”. Toshkent:2020.B-437

narsani o‘sha texnika vositasida suratga olish atash semasi deyiladi. Screenshot qilmoq qo‘shma fe‘llining ifoda semasi “neologizm” ekanligidir. “So‘zlashuv uslubiga xosligi” ifoda sevmasiga hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo‘llanadi, bunda turli xil gaplardan foydalanishimiz mumkin. *O‘zing ko‘rayotgan ma‘lumotlarni menga skringshot qilib yubor. Menga skringshot qilishni o‘rgatib qo‘yasizmi? Men skringshot qilishni bilmayman. Buning nomi nima, bu skringshot qilish deb ataladimi?*

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendation). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilshunosligi so‘zlashuv uslubiga kirib kelgan yangi so‘zlar lug‘at boyligimizni faol rivojlantirishda davom etmoqda. Biz mana shu ilmiy maqolamizda yangi so‘zlarni semantik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bu tahlil orqali og‘zaki va yozma matnlar yaratishda, yangi so‘zlarning ma‘nolarini tushunishda nazariy ma‘lumot bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o‘zbek tilshunosligi. – Toshkent: ”Universitet”, 1997. – B. 28
2. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.- Toshkent: “O‘zbekison”- 2002.- B.152-153
3. Ayub G‘ulomov ilmiy merosi. 2-kitob. Toshkent: 2006. – B.-101
4. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft, takroriy so‘zlar. Toshkent:1963.- B. 33-38
5. Hojiyev A. Fe‘l.Toshkent: ”Fan”- 1973. B.7-9
6. Internet.Vikepediya.